

TASHABBUSIMIZ,IQTIDORIMIZ,KUCH-QUDRATIMIZ- VATAN UCHUN!

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Saparova Feruza*

Annotatsiya Vatanga muhabbat mavhum tushuncha bo'lmay, tashkilotchilikni, taraqqiyot va madaniyatni talab qiladigan real ruhiy qudratdir.

A.N.Tolstoy.

KIRISH

Har bir kishi yoki narsa o'zi uchun mos bo'lgan joyda turadi. Masalan hech bir kishi gulni tikan ichiga ekmaydi yoki bulbul changalzorda yashamaydi. Xuddi shuningdek, inson ham o'zi uchun qadrli va qulay joyda yashaydi. Bu vaziyat taqazo etgan holatmi yoki inson o'zi shuni xohlaydimi o'zi tug'ilib o'sgan yurtidan ajralgisi kelmaydi. Agar ikki yiki uch kun boshqa shaharda bo'lsangiz uyingizni sog'inasiz. Qalbingiz uyingiz tomon talpinadi. Aslida shu uy bizning vatanimizdir. Vatan –bu bizning uyimiz ,olayotgan havoyimiz, urayotgan yuragimizda yashaydi. Biz bolaligimizda eshitgan birinchi kuyimiz allani unutilmaganimizdek, vatanga bo'lgan muhabbatni ham unutilmaymiz. Vatanga muhabbat bizga ona allasi bilan qalbimizga kirgan .Biz bu tuyg'u orqali o'zligimizni anglaymiz desak mubolag'a bo'lmaydi. Men "Vatan ichida kichik vatan" deyilganda uy, mahalla va maktabni tushunaman. Chunki har bir inson ham ilk bor "Vatan" so'zini shu yerda o'rganadi.

Vatan haqida yozilmagan she'r ,bitilmagan doston, aytilmagan doston bo'lmasa kerak. Agar biz o'tmishga nazar tashlab ,jadidlarimiz hayotini oladigan bo'lsak, ular eng avvalo ,xalqning ma'rifatli bo'lishi uchun ,yurtlarini himoya qilish uchun kurashganlar. Axir xalq ma'rifatli bo'lsagina vatan ozod va yuksaklikka erishadi. Yoki buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylariga kelsak, ularning aksariyat qismida vatanga muhabbat va vatan sog'inchi mavzulari yetakchilik qilganini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday dostonlarni oladigan bo'lsak ham ,ularning bosh qahramonlari yurtlarini dushmandan ozod qilish uchun harakat qilishadi.

Ona To'maris shonli qismati ,
Jaloliddin tig'i taratgan jarang
Bizning yurakkacha ,balki, yetmasdi
Bo'lmaganda ,xalqim, allang-xotirang.

"Har kimning tug'ilgan yeri –Misr shahri" degan gapni ko'p uchratamiz. Bu nima degani ? Aslida ,har kim uchun o'z yeri aziz va muqaddasdir. Bu haqida Alisher Navoiy shunday yozadi:

G'urbatda g'arib shodumon bo'lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo`lmas emish
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulga tikandek oshiyon bo`lmas emish.

Buning isboti sifatida bulbul oltin qafasdan ko`ra tikanli oshiyonni afzal ko`radi deyishimiz mumkin. Vatan mehri har birimizning qonomizda jo`sh uruvchi tuyg`udir. Xuddi shunday boshqa yozuvchilar ijodida ham "vatan" mavzusi yetakchi mavzulardan biri bo`lib qolmoqda. "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimizning qanday inson bo`lib kamolga yetishi bilan bog`liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o`z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat"-deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Albatta, mamlakatning yuksalishida yoshlarning o`rni katta. Shuning uchun ham yoshlar masalasi yurtimizda ustuvor yo`nalish sanaladi. Yoshlar malakasini oshirish, kadrlar tayyorlash maqsadida yurtimizda "El-yurt umidi" jamg`armasi tashkil etildi. Bu jamg`arma dunyoning yetuk davlatlari bilan hamkorlikda yo`lga qo`yilgan. Xorijda magistratura va doktorantura yo`nalishlari bo`yicha o`qib kelgan yoshlarga vazirliklar, idoralar, turli tashkilotlarda besh yil ishlash, ya`ni xorijda o`rgangan bilimlarini O`zbekistonda qo`llash talabi qo`yiladi. Bu jamg`arma stipendianti bo`lgan yoshlar uchun barcha xarajatlar jamg`arma tomonidan qoplab beriladi va jamg`arma stipendianti bo`lish uchun quyidagi talablar qo`yildi:

- hujjat topshiruvchi kishi O`zbekiston fuqarosi bo`lishi;
- ikki yil ish stajiga ega bo`lishi ;
- moliyaviy majburiyat to`g`risida rasmiy rozilik.

Prezidentimizning "Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi farmoni asosida ushbu jamg`arma tuzildi. Bu jamg`arma stipendianti bo`lish uchun esa talab yildan yilga ortmoqda. Bu esa, o`z navbatida tashkilotlarimizda xorij texnologiyalari asosida ish yuritish imkonini yaratadi. Shu o`rinda aytib o`tish kerakki, O`zbekiston –yoshlar mamlakati. Chunki, O`zbekiston aholisining oltmish foizdan ortig`ini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar yurtning kelajagi bo`lgani uchun ham mamlakatimizda yoshlarga doir qiqdand ziyod qonun hujjatlari, o`ttizdan ortiq xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Bu esa yoshlarga o`z salohiyatlarini namoyon etish uchun sharoit yaratib beradi. Yoshlarni IT texnologiyalariga o`rgatish, bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni ish bilan ta`minlash choralar ko`rilmoqda. "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalar farzandlari turmush qurayotganda o`z xonadonida qo`shimcha uy qurish uchun garovsiz kreditlar ajratildi. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, islohotlarning birinchi kunidanoq ta`limga alohida e`tibor berilmoqda. Islohotlardan biri bu yilning "Insonga e`tibor va sifatli ta`lim yili" deb nomlanishi ta`limga qaratilgan keng imkoniyatlarning biri bo`ldi desak adashmagan bo`lamiz. Yana muhim islohotlardan biri korrupsiya saezilarli darajada yo`qotildi. Bu esa jamiyat hayotiga ta`sir o`tkazmasdan qolmadi. Sababi korrupsiya doim rivojlanishga to`siq bo`ladi va raqobatni yo`qotadi. Raqobat bo`lmagan joyda esa rivojlanish haqida gapirish

ham mumkin emas. Bu islohotlar, bu imkoniyatlar yoshlarning salohiyatini oshirish uchun, o'z loyihalarini dunyoga tanitish uchun tashkil etilmoqda. Yoshlarning innovatsion va biznes loyihalari va startaplar uchun kreditlar ajratildi. Hozirda e'tibor bersak, to'rt yoki besh yoshli bola ham telefon ishlata oladi. Bu holat zamon shiddat bilan rivojlanib borayotganini bildiradi. Zamon rivojlanayotgan bir davrda odamlar ham bir joyda turgani yo'q. Odamlar ham uning ichida zamonaviy bo'lib bormoqda. Shunga yarasha imkoniyatlar ham tobora kengaymoqda. Berilayotgan imkoniyatlardan biri prezident maktablarining tashkil etilishidir. Bu maktablarning tashkil etilishidan asosiy maqsad ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali iqtidorli yoshlarni aniqlashdir. Bu esa o'z navbatida o'zbek yoshlarini jahonga tanitishga, jahonda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Biz tarix kitoblarda "Renessans" degan so'zni ko'p uchratamiz. Aslida renessans nima? Renessans bu uyg'onish, rivojlanish, jamiyat hayotidagi turg'unlik davridan keyin qayta jonlanib madaniyatni, qadriyatni yangi bosqichga olib chiqishdir. Uyg'onish davrini bugunga kelib yurtimizda uchga bo'lishadi. Birinchi to'qqiz va o'n ikkinchi, ikkinchisi esa o'n to'rt – o'n beshinchi asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda jahon tan olgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz bu renessanslarning poydevori bo'lsa, uchinchi renessans ya'ni bugungi kun poydevori yoshlar deya ta'kidlanmoqda. Bu renessanning asosiy bo'g'inlari deb oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim, ilmiy-madaniy dargohlar aytilmoqda. Biz shu sohalarda chuqur islohotlar o'tkazsak, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishimiz mumkin. Bizlarga bildirilayotgan bu ishonch va imkoniyatlar tufayli uchinchi renessansni albatta yaratamiz.

XULOSA

Xulosa qilganda, yurtboshimiz aytganlaridek "O'zbekistonni hech kim kelib chetdan obod qilib bermaydi. Uni o'zimiz obod qilamiz va o'zimiz asraymiz!" Axir biz yoshlar O'zbekiston kelajagimiz. Bugunimiz ertani hal qilgani uchun ham bugun tinmay harakat qilsak, jahon arenalarida o'z o'rnimizni topa olamiz, xalqaro olimpiadalarda raqobatbardosh yoshlar bo'lamiz. Biz yoshlar bu yurtning ishonchi va umidimiz. Shuning uchun ham **TASHABBUSIMIZ, KUCH – QUDRATIMIZ VATAN UCHUN!**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) 5-sinf adabiyot darsligi;
- 2) yoshlarportali.uz
- 3) yoshlar.gov.uz 1-bosqich
- 4) piima.uz